

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Filologiya fakul'teti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi**

**III bosqich "A" guruh talabasi**

**Toshboeva Fotimaning tayyorlagan**

# **KURS ISHI**

**Mavzu:** A. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida nomachilik an'anasi.

**Bajardi:** Toshboeva Fotima

**Tekshirdi:** S. Qurbonov

**Andijon-2016**

**REJA:**

1. "Layli va Majnun" dostonining yaratishi.
2. "LaylivaMajnun" dostonida nomachilik an'analari.
3. Dostondagi nomalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
4. Dostonning tarbiyaviy ahamiyati.

.“Layli va Majnun” haqidagi qissa arab xalqlari orasida keng tarqalgani va g’oyat mashhur bo’lgani haqida akademik I. Yu. Krachkovskiy shunday yozgan edi: “Sharqda Layli va Majnun G’arbdagi Romeo va Juliettaga nisbatan mashhurroqdir”.

“Layli va Majnun” Alisher Navoiy “Xamsa”sining uchinchi dostoni bo’lib, 1484 yilda yozilgan. Dostonning kirish boblaridan birida Navoiy an’anani davom ettirib, bu mavzuda asar yozgan salaflarini chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. Ulardan farqli o’laroq asarini turkiyda. yozganini alohida ta’kidlaydi. Navoiy Nizomiyning dostonini “qal’a”ga, Dehlaviynikini yaxshi bezakli “qasr”ga o’xshatib, o’zining dostonini esa “qal’a” va “qasr” atrofidagi shahar va bog’larga qiyos etadi. SHoir o’z asarini “Firoqnama”, “Nomai dard” deb ham ataydi.

Dostonning “Bu dard tarannumi va bu hasrat nomasi takallumi va tartibi avzoining afsonasin tuzmoq va taqsimi atvorining taronasin ko’rguzmoq va savhu xato arqomig’a e’tirof varzish etib Haqdin ul bobda talabi amirzish qilmoq” deb sharh berilgan o’ttiz sakkizinch bobida muallif yozadi:

Yozmoqta bu ishqiji jovidona,

Maqsudim emas edi fasona.

Mazmunig’a bo’ldi ruh mayli,

Afsona edi aning tufayli.

Afsona anga libosi mavzun...

Demak, dostonga munosib libos bo’lgan Layli va Majnun haqidagi afsona syujetini badiiy bayon etish, hattoki hayot mantiqi ufurib turgan obektiv voqelik ham ushbu doston uchun maqsad emas, vosita xolos. Ya’ni afsona hamda real hayot lavhalari ulkan, azaliy va abadiy haqiqatni ifodalovchi majoz. Syujet voqelagini haqiqat deb bilgan va unga ergashgan o’quvchi dostonning faqat zohiriy qatlamini kashf etadi, shuning o’zi bilan kifoyalanganda ham katta ma’naviy boylik sohibiga aylanadi. Ikkinchidan, tasvir va ifoda tarzidagi badiyyat sof filologik talqin, tarixiy poetika nuqtai nazaridan yuksak ahamiyatga ega. Ammo shunisi borki, hazrat Navoiyning pirovard maqsadi bu ham emas. Buyuk mutafakkir-adib ko’zda tutgan, to’g’rirog’i maqsad qilgan mazmun bevosita makon-zamon nuqtai nazaridan qaraganimizda o’ta ulkan. Bir so’z bilan aytganda, Layli va Majnun degan majoz ostida butun insoniyat tarixi mujassamlashgan. Unda Odam atodan tortib ayni damda dunyoga kelgan chaqaloqqacha, hatto qiyomatgacha kelib ketajak insoniyat, ayni paytda, yagona inson tarixi muhrlangan. Dostonning xronotop maydoni ham aynan shu tomondan qaragandagina muallif talqiniga yaqinlashadi deb o’ylaymiz.

Doston syujet tizimidagi har bir chiziqni birbutun timsolning ajralmas bo’lagi deb qaraydigan bo’lsak, asarning umumsyujeti, obrazlar tizimi, uslubi va ritmi, asl maqsadi va mazmuni, undagi tragik vaziyatlar universal xronotop maydonida nomoyon bo’ladi. Shunda doston ota-onalarning o’zaro nizosi bois halokatga uchragan oshiq va ma’shuqa fojiasi haqida emas, ilohiy (ya’ni universal) xronotopda harakat qilayotgan inson haqidagi buyuk bir asar ekani ayonlashadi.

Yaqin va O’rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Ushbu qissaning kelib chiqish manbai qadim arablar hayoti bilan bog’liq voqealarga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma’lumot berishicha, Majnun tarixiy shaxs bo’lib, Shimoliy Arabistonagi Bani Omir qabilasiga mansub bo’lgan. Uning ismi manbalarda Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra va ba’zan al-Buhturiy

ibn al-Ja'd tarzida keltiriladi. Majnun o'z qabilasidan Layli ismli qizni sevib, unga bag'ishlab ajoyib she'rlar to'qigan. Uning she'rlari qabiladoshlari va boshqa qabila kishilari orasida keng tarqalganligi haqida Ibn Qutaybaning "Kitobu-sh-she'r va sh-shuar" asarida ma'lumotlar keltiriladi. Lekin shu bilan birga ayrim tarixchilar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy, mavjud she'rlar o'z amakisining qizini sevib qolgan umaviy bir yigitning she'rlari, u she'rlarida Majnun taxallusini qo'llagan deb aytadilar. Har holda nima bo'lganda ham VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arab she'riyatida Majnun taxallusi bilan ishq mavzusida yozilgan g'amgin she'rlar paydo bo'lgan.

Badiiy adabiyotda bu qissa doston shaklida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan vujudga keldi. Keyinchalik forsiy tilda Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy, turkiy tilda Gulshahriy, Oshiq Poshsho, Shahidiy, Fuzuliy kabi shoirlar bu dostonga javob yozdilar.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat. SHundan muqaddima 9 bobni o'z ichiga oladi. Doston an'anaviy hamd Allohning madhi bilan boshlanadi. Unda shoir olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi tabiatning o'ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo'qdan bor, bordan yo'q bo'lishi bularning hammasi Allohning beqiyos qudrati va ulug'ligining ifodasi ekanini ta'kidlab, unga hamdu sanolar o'qiydi. Navoiy bobda g'oyat ustalik bilan Allohning yerdagi tajallisi tasvirini ushbu yozilayotgan dostoni g'oyasi bilan bog'liq holda bayon qiladi. Yaratuvchining har yerdagi tajallisi jahonda Layli bo'lib ko'rindi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iboratdir:

Ey har sorikim, qilib tajalli,

Ul mazhar o'lub jahonda Layli.

Ey oniki Layli aylab otin,

Majnun qilmoq qilib sifotin.

Ikkinchi bob Munojotni o'z ichiga oladi. Mazkur bobda Navoiy Allohga murojaat qilib, uni borliqni yaratgan yagona va oliy zot deb ataydi va o'z gunohlarini, xatolarini kechirishni iltijo qiladi. Shoir dostonni yozishga kirishar ekan, Xudodan o'ziga madad va ko'mak so'raydi:

Yo Rab, eshicingda ul gadomen,

Kim, boshtin ayoqqacha xatomen.

Mushkum bu xatoda bo'ldi kofur,

Kofur ila mushkum o'ldi benur...

Boq dardu malolatimg'a, yo Rab,

Rahm ayla bu holatimg'a, yo Rab...

Shukrungg'a tilimni qoyil ayla,

Sajdangga boshimni moyil ayla...

Bo'l rohnamun mango ul ishga,

Kim, bo'lsa sanga rizo ul ishga...

Dostonning 3-bobi Muhammad payg'ambar (s.a.v) madhiga bag'ishlangan. Bu bobda Navoiy Muhammad payg'ambar (s.a.v)ni risolat sipehri (payg'abarlik osmoni)ning quyoshi deb atab, Odam Atoni uning daraxtidagi mevaga o'xshatadi. Kitobot san'ati vositasida payg'ambarlik muhri hotamning “׀” “alif” va “ت” “te”sida uning oti yashiringanini aytadi:

Ul muhri xututi vasfi zoting,

Xotam “alif”iyu “te”si oting.

Navoiy na'tni Payg'ambar va uning oilasiga yuz ming salavotu vasflar aytish bilan yakunlaydi.

4-bob Me'roj tuni ta'rifiga bag'ishlangan. Navoiy me'roj tunini ta'riflar ekan, bu tunning rangini toza mushk rangiga o'xshatib, uning har bir yulduziga quyosh rashk etadi deb yozadi:

Kim rangi edi chu mushki nobi,

Har yulduzi rashki oftobi.

Navoiy Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning Buroq otiga minib ko'kka ko'tarilishini tashxis san'ati vositasida bayon qilar ekan, sayyoralar, yulduzlar, o'n ikki burjlarning nomlarinigina emas, ularning xususiyatlarini ham ko'zda tutib, Me'roj tunining mo''jizaviy holatini tasvirlaydi. Shoirning yozishicha, payg'ambar Ollohning huzuriga oy bo'lib borib, quyosh bo'lib qaytdi, gavhar bo'lib borib, Ummon dengiziga aylanib keldi:

Oy bordiyu keldi mehri raxshon,

Dur bordiyu keldi bahri Ummon.

Dostonning 5-bobi so'z ta'rifi, Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhini o'z ichiga oladi. Navoiy dastlab so'zga ta'rif berar ekan, uni eng ajoyib gavhar, mavj urgan dengizga o'xshatadi:

Ey so'z, ne balo ajab guharsen,

Gavhar neki, bahru mavjvarsen...

Aytibsovumas tarona sen sen,

Olib qurumas xizona sen sen.

Nizomiy Ganjaviy madhida talmeh san'atining yetakchilik qilishini kuzatish mumkin. U fazilatda Turdag'i Muso, qanoatda Qofdag'i Anqoga o'xshatiladi:

Ham Turi fazilat uzra Muso,

Ham Qofi qanoat uzra Anqo.

U Ganjada ganj (xazina)dek yashirinib, besh ganj “Xamsa”ni nishon qilib ketdi:

Ul Ganjada ganjdek nihoni,

Besh ganj qo'yub vale nishoni.

Bobda Dehlaviy sohiri Hind (hind sehrgari) ta'rifi ostida keltirilib, u yaratgan asarlar fitnagarlikda Kashmir o'lkasidek bo'ldi deyiladi:

Ko'rgach bu tilsim sohiri Hind,

Jodulig' ishida mohiri Hind...

Har safhai nazmi gohi tahrir,

Fitna aro bir savodi Kashmir.

6-bob Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhidadir. Navoiy Jomiy ismidagi “nur” so'ziga alohida urg'u berib, uning oti ham, zoti ham “nurun-alo nur”dir deydi:

Sochib laqabi jahon aro nur,

Zoti bila nurun alo-nur.

Navoiy bu o'rinda Jomiy hali to'lalagicha “Xamsa” yaratmagan bo'lsa-da (Jomiy beshligi 1481-85 yillarda yaratilgan, bu vaqtga kelib, Jomiy beshligidagi faqat 3 doston yozib tugallangan edi), lekin o'zining besh xazinasi, ya'ni “Silsilatuz-zahab”, “Tuhfatul-ahror”, “Subhatul-abror”, “Ahsanul-qisas” (“Yusuf va Zulayho”) dostonlari va “Devon”i bilan besh xazinaga munosib javob aytganligini ta'kidlaydi.

Dostonning 7-bobi zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan. Navoiy Husayn Boyqaroni shariatning himoyachisi, adolatparvar, saxovatpesha, bunyodkor shoh, fiqh ilmida Abu Hanifa singari yuksak darajaga ega shaxs sifatida madh qiladi. Shoirning yozishicha, u qilichi bilan sherni mahv

etishdek qudratga ega bo'lsa-da, chumoliga shikast yetsa ko'z yoshini tiyolmaydigan, shohlar orasidagi o'mni falak yuksakligida bo'lgani holda darveshlar oldida tuproqdek xokisor podshohdir:

Sher uzra qilichi barq choqib,

Mo'r o'lsa shikasta yoshi oqib.

Darvesh desam ulus uza shoh,

Shohi darvesh borakalloh.

8-bob shahzoda Badiuzzamon ta'rifidadir. Navoiy shahzodaning ismi "zamonasining go'zali, nodiri" ekanligiga ishora qilib, shunday yozadi:

Gar oti o'lub zamon badii,

Zoti kelib insu jon badii.

Alloh, Alloh, ne ot erur bu,

Ne poku xujasta zot erur bu.

Bobda Badiuzzamonningadolati, saxovati bilan birga qahriga ham alohida ta'rif beriladi:

Adli yorutub jahonni jovid,

Ul adl boshida ayni xurshed.

CHun qahri sharori ko'kka roji'

Ul shin uza nuqta Nasri Voqi'.

Dostonning 9-bobi tun ta'rifiga bag'ishlangan. Bob muayyan ma'noda muqaddima bilan asosiy qismni bog'lovchi ko'prik vositasini o'taydi. Bobda shoirning qorong'i tunda xayol otiga minib, sayrga chiqish tasviri berilgan. Ishq vodiysiga yetganda ot oqsoqlanib, yo'lida davom etolmay qoladi. Yomg'ir, bo'ron aralash momaqaldiroq guldurab, chaqin chaqadi. Chaqin yorug'ida shoir

saksovulday taxlanib yotgan inson suyaklari, vahshiy hayvonlarni ko'radi. N.Komilovning "Tasavvuf" kitobida yozilishicha, bu tasvirlarning hammasida muayyan ramz bor. Bu tun hajr tuni, bu vodiy esa ishq vodiysi, vahshiy hayvonlar oshiqqa xuruj etgan balo-ofatlar, suyaklar ishq qurbanlaridan nishona. O'z asli, Ilohdan ajralgan musofir, g'arib ruh Majnun shu vodiyda yakka o'zi boshini egib o'tiribdi. Shu o'rinda ikkita tashbeh qo'llanilganligini ko'ramiz. Qorong'i tunda birin-ketin chaqmoq chaqib, uning yorug'ida qabilalar ko'zga tashlanadi, shunda shoir tunni Laylining sochiga, chaqmoqni esa Layli yuzining ochilishiga o'xshatadi:

Andoqli qilib karashma mayli,

Zulf ichra jamolin ochsa Layli.

Layli yuzi bu o'rinda ilohiy nur manbai, uzun sochlari moddiy dunyo, firoq tuzoqlari, ("Layli" so'zining o'zi ham tun ma'nosini bildiradi), ana shu nur manbaining chaqmoqlari Majnun qalbi va vujudidan joy olgan. Ikkinci tashbeh: Navoiy ishq vodiysida "nori ayman" (shoxlari shu'lalanib turgan daraxt)ni ko'radi. Qissa boshlanib, Layli va Majnunning birinchi uchrashuvi tasvirlanganda shoir shu tashbehni takrorlab, Majnunni xuddi shu shu'lali daraxt qiyofasida chizadi, ya'ni Layli yuzining shu'lasidan Majnun qalbi alangananib ketadi. "Nori ayman" aslida Qur'on dagi Muso hikoyasiga ishoradir. Muso alayhissalom Allohga yuzingni ko'rsat deb iltijo qilganlarida, Alloh bir uchqunni Tur tog'i tomon yo'naltiradi. Tur tog'i parchalanib, qum holiga keladi, Ayman vodiysi esa yorishib ketib, undagi daraxtlar mash'aladay porlaydi. Alloh ishqini mana shunday qudratga ega.

10- bobdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Bani Omir qabilasida uzoq kutilgan farzand Qays dunyoga keladi. Qaysning tug'ilishi, o'sishi tasvirida ham ilohiy taqdir sezilib turadi. Tug'ilgandan ishq olovi bilan yo'g'rilgan Qays o'tga talpinadi:

O't ko'rsaki mayl etib nihoniy,

Ishq o'ti tasavvur aylab oni.

Uni 4-5 yoshlarida Layli qabilasiga o'qishga beradilar. Bahor kunlarining birida Layli bilan bog' sayrida uchrashib qolgan Qays uni ko'rib hushini yo'qotadi. Navoiy bu o'rinda Laylining husni gulzorni charog'on qilib yubordi va gulzordagi bir nihol (Qays)ni xazon etdi deb yozadi:

Shod o'ldi jamolidin dabiston,

Andoqki bahordin guliston.

Lekin bu bahori zindagoniy,

Bir naxlni ayladi xazoniy.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, guliston darveshning ruhiyati, uni Haq ishqini egallab oladi va u betoqatlanib, hushini yo'qotadi. Shu tarzda majzubi solik (Haqdan jazba yetgan, ustoz ham, piri ham Ishq bo'lgan, maqomlarni egallamasdan turib, hol martabasiga erishgan oshiqlarning sarguzashtlari boshlanadi. Qays shu tariqa Laylini har ko'rganida hushidan ketadi. Xalq orasida "Majnun" laqabi bilan ovoza bo'ladi:

"Layli, Layli!" debon chekib un,

El deb, "Majnundur, ushbu majnun!"

Majnunning ota-onasi uni Layliga uylantirish uchunsovchi yuboradilar. Lekin Laylining otasi qizini aql-hushdan begona bir "devona"ga berishdan or qiladi va Majnunning Layli qabilasiga kelishini ta'qiqlab qo'yadi. Majnunning otasi qabiladoshlari bilan maslahatlashib, Qaysni zanjirband qiladi. Lekin ishq otashi ta'siridan zanjir uzilib, Majnun uyidan chiqib ketadi. U bedard qabiladoshlarini ham, yaqinlarini ham, umuman jamiyatni unutish darajasiga boradi, zero bu holat haqiqiy oshiqlar uchun xos xususiyatdir:

O'z otiyu qavmu xayli oti

Yo'q yodida, g'ayri Layli oti.

Tasavvufda bu holat “tafrid” (yolg'izlanish) deb atadi. Oshiq shunday bir hol martabasini egallaydiki, yaqinlaridan, umuman insonlardan bezor bo'ladi; yakkalikni, yolg'izlikni qo'msaydi. Yolg'izlanish dilning Haqqa yuzlanishi uchun imkon yaratadi.Qaysning otasi o'g'lining dardiga shifo bo'ladi degan umidda haj munosabati bilan Ka'ba ziyoratiga olib boradi. Qarindoshlar Qays Ka'bani tavof etsa, ahvoli yaxshilanadi deb umid qiladilar. Lekin Majnun Allohga munojot qilib, Layli ishqini ko'ngliga mustahkamroq jo etishini so'raydi. Mazkur lavha dostonning eng ta'sirchan o'rinalardan biri bo'lib, qirq uch baytdan iborat. Bu o'ziga xos “munojotnama”da yigirma to'rt o'rinda “ishq” so'zidan foydalanilgan. Bu tasodifiy emas, albatta. Navoiy ushbu so'zni turli poetik unsurlar va ritmik vositalar bilan uyg'unlikda qo'llab, ritmik ohangning turli-tuman jilvalanishlariga erishadi.Dastlab ishq o'ti bilan jahonni yondirgan “hakimi dono”ga sokin murojaat bilan boshlangan mazkur munojot asta-sekin tantanavor ohang kasb eta boradi va bunda “ishq” so'zining ritmik zarb (mantiqiy urg'u asosiga qurilgan, ijodkor aytmoqchi bo'lган fikr yoki ifodalamoqchi bo'lган kuchli his-tuyg'uni o'zida aks ettiruvchi ritmik birlik) darajasiga ko'tarilganligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi:

Chek aynima ishq to'tiyosin,

Ur qalbima ishq kimiyo sin!

Mazkur baytda “ishq” so'zi hojib vazifasida kelgan bo'lib, bayt misralaridagi har bir so'zning o'zaro teng ustunlar asosida joylashishi va buning natijasida muayyan ritmik pauzaning qo'llanilganligi ohangning jozibadorligini ta'minlagan.

Keyingi baytda “ishq” so'zi “et” ko'makchi fe'li bilan birikib, radif vazifasida kelgan va endi ritmik zarb radif bilan birlik kasb etgan:

Ko'nglumga fazo harimi ishq et,

Jonimg'a g'izo nasimi ishq et!

Majnun o'z munojotida ishqni shu tariqa ulug'lar ekan, undan ishq va Laylini unutishni so'rigan kishilarga nisbatan achinish hislarini namoyon qiladi va hatto tangridan ularni afv etishini so'raydi:

Alloh-allooh, bu ne so'z o'lg'ay,

Ul qavmg'a tengri uzr qo'lg'ay.

“Tasavvuf” kitobida keltirilishicha, Ka’ba ziyyorati lavhasi, tasavvuf ahlining har qanday suratlar, timsollarga sig’inishni inkor etishlariga ishoradir. Ya’ni, Ilohnning o’ziga oshiq bo’lgan, faqat Uni deb yongan kishiga bu ishlar ortiqchadir.

Majnunning otasi o’g’lini uyga qaytarib olib keladi va u yana sahroga chiqib ketadi. Sahroda u ovga chiqqan lashkarboshi Navfalni ko’rib qoladi. Navfal ham bir vaqtlar ishq dardiga uchragani uchun Majnunning qalbini tushunadi, unga rahmi keladi:

Navfal dag’i ishq ko’rgan edi,

G’am dashti aro yugurgan erdi.

Navfal ishq dardidan xabardor bo’lsa-da, lekin Majnun darajasiga ko’tarila olmagan, uning sulukdagi maqomi ma’lum bir bosqichga yetgandan keyin to’xtab qolganligini ko’ramiz. Shu sababli u Majnunni Layliga uylantirish bilan uning dardiga malham topish mumkin deb o’ylayli va Layligasovchi yuboradi. Lekin Laylining otasi rozi bo’limgach, urush ochadi. Laylining otasi urushda yengilishini sezib, qizini o’ldirishga qasd qiladi. Bu holat Majnunga tush orqali ayon bo’lgach, Navfaldan urushni to’xtashini so’raydi. Navfal Majnun uchun yana bir chora vositasi sifatida o’z qizini Majnunga berishga qaror qiladi. Laylini esa Bani Asad qabilasining boshlig’i Ibn Salomga unashtiradilar. Navfalning qizi boshqa insonni sevishini aytib, Majnunga aka-singil bo’lishni taklif qiladi. Ibn Salomning esa

quyanchiq (tutqanoq) kasali qo'zg'ab, behush yiqiladi. Layli va Majnun ishq dashtida uchrashadilar.

Layli bu dunyodan ketish fursati yaqinlashganini sezib, onasiga Majnun kelsa, uni huzuriga kiritishlarini vasiyat qiladi. Majnun Laylining bu dunyodan ketayotganini ilohiy bir kuch bilan sezib, uning qabilasi tomon keladi:

Yuz urdi qabila sori xoli,

Og'zida tarannumi visoli.

Shu tariqa umr bo'yи bir-birining ishqida kuygan, visoliga intilganlar Ruhi mutlaq tomon ravona bo'ladilar.

Doston Xotimasi uch bob (36-38)ni o'z ichiga oladi. 36-bob "Ishq ta'rifi"ga bag'ishlangan bo'lib, bunda Navoiy ishqni kimyoga va olamni ko'rsatuvchi ko'zguga o'xshatadi:

Ey, ishq, g'arib kimiyosen,

Bal oyinayi jahonnamosen.

Rivoyatlarga ko'ra, qadimda kimyogarlar mis va boshqa ma'danlarni yuqori harorat ta'sirida oltinga aylantirish mumkin deb hisoblaganlar. Navoiy bu o'rinda shu afsonaga ishora qilib, odam aslida tuproqdan yaralgan, ammo ishq olovining "kimyo"ligi uni oltinga aylantiradi, ya'ni ishq inson vujudini turli xil chiqindilar: jismoniy talablar va nafsoniy istaklardan poklaydigan otashdir degan fikrni keltiradi:

CHun xolisu poku beg'ash o'ldi,

Oltin neki kimiyovash o'ldi.

Poklanish, ya'ni "kimyo"lanish ishqni majoziy bo'lib, undan "oltin"ga aylanib chiqqan oshiq endi o'zligidan qutuladi va qayoqqa qarasa, haqiqiy Yor(Haq)ni ko'radi:

Chun boqqali ixtiyor topti,

Har soriki boqtি yor topti.

Ham naqshi vujudin etti foni

Ham topti baqoyi jovidoni.

Bu esa qalbning ko'zguga, ya'ni "oyinai jahonnamo"ga aylanishi, boshqacha aytganda ishqи haqiqiyga molik bo'lishdir.

Dostonning 37-bobi Sulton Husayn Boyqaro akasining o'g'li shahzoda Sulton Uvays bahodir madhiga bag'ishlangan. Navoiy shahzodani ta'rifu tavsif qilish asnosida g'oyat ustalik bilan unga shariat, adlu himmat bobida nasihatlar ham qiladi va zamona sulton Husayn Boyqaroni unga ibrat qilib ko'rsatadi.

Dostonning so'nggi bobи "dard navhasи" (yig'isi)ning yakuni haqida bo'lib, shoir bunda dostonni tugallagani uchun Allohga shukrona keltiradi. Navoiyning doston mohiyati haqida aytgan eng muhim fikrlari aynan shu bobda tajassum topgan:

So'gin nechakim uzottim oxir,

Yig'lay-yig'lay tugattim oxir...

Yozmoqta bu ishqи jovidona,

Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,

Afsona edi aning tufayli...

Men turkcha boshlabon rivoyat,

Qildim bu fasonani hikoyat.

Kim, shuhrati chun jahong'a to'lg'ay,

Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay...

"Layli va Majnun" dostonidan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu dunyoda yashovchi har bir inson oshiqlik yo'lini tutib, o'zini o'limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak, zero bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu. Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi, shu sababli Navoiy uni mazhar Layli timsolida yaratadi.

Doston hazaj bahrining hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (ruknlari va taqt'i: maf'ulu mafoilun fauvlun) vaznida yozilgan. Lekin dostonda mazkur vazn bilan birga qo'shimcha tarzda hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf (ruknlari va taqt'i: maf'ulun foilun fauvlun) vaznining ham qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Bu holat tasodifyi bo'lmay, doston mazmuni va g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Dostondagi 3623 baytdan 240 misra aynan mana shu ritmik variatsiya (bir vaznning ichki imkoniyatlar asosida yangi variantlarga ega bo'lishi)da yaratilgan bo'lib, dostondag'i ziddiyatli voqealar, asar qahramonlarining chuqur ruhiy iztiroblari tasviri, qahramonlar ruhiyatining tabiat tasviri bilan bog'liq bayoni, qahramonlar hayrati aks etgan misralar, lirik chekinish paytida mazkur variatsiyaga murojaat qilinganligini ko'ramiz.

. Navoiy arab rivoyatlari bilan, Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar dostoni hamda Ashrafning bizgacha saqlanib qolmagan "Layli va Majnun"i bilan yaqindan tanish edi. U "Layli va Majnun" dostonini yaratishga kirishar ekan, ma'lum adabiy traditsiyalardan voz kecholmasdi, albatta. Navoiy oldida mana shu adabiy traditsiyalardan ijodiy foydalanish va shu asosda davrining yangi va muhim talab hamda ehtiyojlariga javob berish vazifasi turar edi. Bu haqda shoirning o'zi dostonaning xotimasida bunday deydi:

Men xastaki bu raqamni chektim,

Tahriri uchun qalamni chektim.

Yozmoqta bu ishqijovidona,

Maqsudum emas edi fasona.

Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,

Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,

Afsona anga libosi mavzun...

Gar nuqtalari jahonni tutti,

g'avg'olari insu jonni tutti.

Chun forsiy erdi nuqta shavqi,

Ozro edi anda turk zavqi.

Men turkcha boshlabon rivoyat,

qildim bu afsonani hikoyat,

Kim shuhrati chun jahong'a to'lg'ay,

Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay...

Bu parchada Navoiy ikki masalaga, birinchidan, "afsona" va "mazmun"ga, ya'ni asarning qobig'i va mag'zi, ichki mohiyati masalasiga, ikkinchidan, til masalasiga e'tibor qiladi.

Navoiy o'z dostonida Layli va Majnun haqidagi afsona va rivoyatlardan foydalananadi. Biroq uning maqsadi "afsona" so'zlash emas, balki "mazmun" bayon etishdir. Afsona asarning qobig'i, uning "mavzun libosi"dir. Hayot, Navoiy yashagan muhit masalalari asarning mazmuni, asl mohiyatidir. Sirtdan qaraganda,

dostondagi voqealar qachonlardir arab sahrolarida bo'lib o'tgandek tuyuladi. Bu adabiy traditsiyalar zaminida vujudga kelgan va asarning romantik hikoyaviy koloritini kuchaytiruvchi shartli elementlardir. Mohiyat e'tibori bilan esa Layli va Majnun ham, ularning alamli, fojiali sarguzashtlari ham feodal-klerikal muhit bilan, Navoiy yashagan zamin va zamon bilan uzviy bog'liqdir.

Feodal-klerikal muhit insonning haq-huquqlarini top-tagani, dahshatli qonun-qoida va urf-odatlarni joriy qilgan edi. Kishilar insoniy sifat va hislatlari bilan emas, balki nasl-nasabi, mol-mulki va mansabi bilan baholanar edi. Ayniqsa xotin-qizlarning ahvoli va taqdiri mudhish edi. Feodal-klerikal zodagonlar ularni odam qatoriga qo'shmas edilar. Qiz bola erga chiqqunicha otasining, keyin esa tamoman erining izmida bo'lar edi. U o'qish va ishlash huquqidan mahrum edi, ro'zg'or cho'risi, paranji asirasi va chordevor tutqini edi. Nikoh nikohga kiruvchilarning xohishi bilan emas, balki ota-onalarning amri irodasi bilan bo'lar edi.

. Demak, Navoiy "Layli va Majnun" dostonini yashagan davrining hayotiy talablari asosida vujudga keltirgan edi. Shoir Layli va Majnunning fojiasi bilan yashagan muhitining dahshatli qonun-qoidalariga, urf-odatlariga qarshi isyon ko'taradi. Shu bilan birga, bu doston insonni, uning haq huquqini, samimiy sevgisini himoya qilishga, kishilarning shaxsiy va oilaviy baxt-saodatlari uchun kurashga chaqiruvchi kuchli sado edi.

Navoiy "Layli va Majnun" ustida ishlar ekan, dostonning hayotiy mohiyatini to'ldirish va takomillashtirishga, Layli va Majnunning fojiasini chuqurroq yoritishga intiladi, syujet va kompozitsiyaga, obrazlarning xarakteriga bir qator o'zgarishlar va yangiliklar kiritadi. Navoiy Layli va Majnunning birga maktabda o'qishi va ular o'rtaida muhabbatning paydo bo'lishini yangi realistik detallar bilan boyitadi. U qahramonlarning ruhiy kechinmalariga katta e'tibor beradi. Majnunning sahroga, toqqa qochib ketishi epizodlarini takomillashtirishi hamda uning tushga ishonishi epizodlarini kiritishi bilan dahshatli quvg'in va ta'nalar toshi ostida qolgan kishining ruhiy ahvolini to'laroq yoritishga erishadi. U Layli

obrazini ham hiyla takomillashtiradi, uni aktivlashtiradi. Masalan, Layli ibn Salomga nikoh bo'lish oldidan zaharli xanjar tayyorlab qo'yan va Majnunga sodiqligicha qolib, o'lishga ahd qilgan edi. Navoiy, Xisrav Dehlaviy dostonida bo'lgani kabi, Majnunning Navfal qizi bilan nikoh qilinishi epizodini beradi. Biroq u bu epizodni boshqacha planda rivojlantirib, dostonning g'oyaviy-badiiy qimmatini yanada oshiradi. Navoiy dostonga Navfalning qizini sevgan yigit obrazini kiritadi. Majnun Laylidan, Navfalning qizi sevgan yigitidan ayrilgan. Majnun bilan Layli, qiz bilan yigit sarguzashti bir-biriga monand. Majnun qizni qoldirib, Laylini istab yo'lga chiqadi. Layli xafaqon kasali tutib qolgan ibn Salomni qoldirib, Majnunni istab yo'lga chiqadi. Kelinni tashlab chiqqan Majnun bilan kuyovni tashlab chiqqan Layli sahroda uchrashadilar. Navoiy dostonga Layliga qabiladosh bo'lgan Zayd obrazini ham kiritadi. Bundan tashqari, Navoiy "Layli va Majnun"ga yana ko'p o'zgarish va yangiliklar kiritadi. U maishiy hayot lavhalari, marosimlar, rasm-rusum, urf-odatlar va boshqalarni XV asr hayoti nuqtai nazaridan tasvirlaydi. Kichik tasviriy o'rnlarda ham o'zi yashagan zamin va zamondan foydalanishga intiladi. Bularning barchasi Navoiy dostonining original qimmatini, milliy koloritini yanada oshirishga xizmat qiladi. Navoiy qalami bilan "Layli va Majnun" mukammal she'riy roman darajasiga ko'tariladi.

Layli va Majnun haqidagi afsona va rivoyatlar, shuningdek Nizomiy va Xisrav Dehlaviyning dostonlari turkiy xalqlarga, jumladan o'zbeklarga qisman ma'lum bo'lsa-da, lekin ularning ko'pchiligi bu asarlardan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega emas edi. Ular uchun o'z tilida Doston yaratish lozim edi. Davr, kitobxonlar, o'zbek adabiyoti va adabiy tilining taraqqiyoti shuni taqozo qilar edi Navoiygacha o'tgan o'zbek yozuvchilari o'z she'rlarida Layli va Majnunning lirik obrazini tasvirlagan bo'lsalar, Navoiy birinchi bo'lib o'zbek tilida va umuman, turkiy tillarda "Layli va Majnun" dostonini, Layli va Majnunlarning mukammal epik obrazini yaratdi.

Shunday qilib, Navoiy o'z oldiga qo'ygan ikki masalani - hayotiy mazmun va til masalasini katta muvaffaqiyat, bilan hal etdi, "Layli va Majnun"ning tarixiy takomilida yangi davr boshlab berdi.

"Layli va Majnun" bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan kishilarning, ikki xil e'tiborlari asosiga qurilgan dostondir. Dostonda sevgi bilan hirs, sadoqat bilan munofiqlik, nomus bilan orsizlik, xayrixohlik bilan xudbinlik, mushfiqlik bilan zo'ravonlik,adolat bilan haqqoniyatsizlik, oljanoblik bilan qabohat o'rtasida qattiq kurash boradi.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotda o'zining dilbar lirik she'rlari bilangina emas, balki takrorlanmas nasriy asarlari bilan ham o'lmas iz qoldirgan adibdir. Navoiyning nasriy asarlari tarixiy, tarixiy-memuar, ilmiy, diniy, tasavvufiy hamda axloqiy-ta'limiy mavzularga bag'ishlangan.

“Tarixi muluki Ajam” asari ajam shohlari tarixiga bag'ishlangan. Unda Navoiy fors sultonlarini 4 tabaqaga ajratadi:

1. Peshdodiyilar. 2. Kayoniylar.

3. Ashkoniyilar. 4. Sosoniylar.

Shuningdek, shoir ushbu masnaviyda Husayn Boyqaroga bag'ishlangan, uning tug'ilishidan to podshohlik damlarigacha bo'lgan davrini, sifatlarini tarannum qiluvchi bir asar yozish niyati borligini ham qayd etadi.

4. Asarning asosiy g'oyasi-odil podshohlarni maqtash va zamona hukmdorlarini ana shu podshohlardan namuna olishga chaqirishdir. Navoiy tarixda shunday podshohlar bo'lganiga ishonadi va ularning nomini “hayvon suyi” (obi hayot) bilan tiriltirmoqchi, ya'ni tarixdan olib chiqib, zamonaga va kelajakka xizmat qildirmoqchi. Shuning uchun ham uzoq tarixdan Navoiy shunday xulosa chiqaradi: birov shoh bo'ladigan bo'lsa, jahon hashamatini ko'zga ilmasin. Faqat zulmni yo'q

qilish uchungina vaadolat o'rnatish uchungina mamlakat va taxt olishga arziydi. Kishi o'zi shoh bo'lsa ham xo'yi (fe'li, xarakteri) darveshlarcha bo'lishi kerak.

“Tarixi anbiyo va hukamo” asari avliyo va anbiyolar, olimlar, hukamolar tarixiga bag'ishlangan. Odam atodan boshlab o'tgan payg'ambar va valilardan 59 tasi, 4 ta obid hamda 13 hukamo haqida fikr yuritiladi. Navoiy asarda payg'ambarlarni 4 guruhga ajratadi:

1. Mursol payg'ambarlar: Bularga Jabroil vositasida vahy kelgan.
2. G'ayri mursal payg'ambarlar: ilhom yoki tushdagi vahiylik orqali elga rahnomalik qiladilar;
3. Ulul-azm payg'ambarlar: osmoniy kitoblar nozil bo'lgan kishilar.
4. Xotam payg'ambar: eng so'nggi payg'ambar bo'lib, bu Muhammad (s.a.v.) dir.

Alisher Navoiy nafaqat badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik, balki qiyosiy tilshunoslikka ham muhim hissa qo'shgan. Uning tilshunoslikka bag'ishlangan “Muhokamat ul-lug'atayn” asari turkiy tilning imkoniyatlarini fors-tojik tiliga chog'ishtirish orqali ko'rsatib berishga bag'ishlangan. Asar 1500-yilda yozilgan bo'lib, unda turli tilda mavjud bo'lgan, ammo sort (fors) tilida muqobili bo'limgan 100 ta so'z, shuningdek bir necha ko'p ma'noli so'zlar, forsiy tilda birgina varianti mavjud bo'lgan sinonim so'zlar, ayrim hayvon va parranda nomlari, kiyim-kechak nomlari, yeguliklar nomi, kasb-hunarni atovchi otlar haqida ma'lumot beriladi. Ayrim so'zlar haqida gapirganda Navoiy turkiy nazmlardan misollar keltirib, fikrini isbotlaydi. Masalan, “sinqarmoq” so'zi xususida to'xtalib, shunday deydi: “...Biri sinqarmoq lafzidurki, mubolag'a mundin o'tmas turkcha nazmda bu matla' bordurkim, bayt:

Soqiyo, tut bedakim, bir lahza o'zumdan boray,

Shart bukim, har necha tut sang labo-lab sinqaray.

Asarning hech biror o'rnida Navoiy fors-tojik tilini kamsitmaydi, balki bu til hamda ushbu tilda ijod qilgan ijodkorlarga hurmati baland ekanligini qayd etadi. O'zining turkiy va fors-tojik tilida yaratgan asarlari nomlarini zikr etadi. Navoiy nasrda yozilgan va ilmiy uslubda yaratilgan bu asarda ham 7 ta ruboiy 2 ta qit'a, bayt va nazm deb atalgan 70 misra she'r keltiradi. She'rlarning katta qismi shoir qalamiga mansub. Shuningdek, unda Atoyi, Lutfiy, Husayniy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Xoqoniy Shervoniy kabilarga oid she'riy misralar ham bor.

Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari turkigo'y xalqlarni aruz ilmidan bahramand etish niyatida yozilgan. Shoir an'anaviy aruzga turkiy she'riyatga xos bo'lган vaznlarni, ularning bahrlarini qo'shdi.

O'zbek she'riyatining, xalq og'zaki ijodining necha yuz yillik tajribasi bu asarda birinchi bor tadqiq etilib, umumlashtirib berilgan.

Har bir bahrning ruknlari, turlari haqida ma'lumot berilib, she'riy misralar asosida dalillanadi. Asarda 164 bayt g'azal, 1 ta tuyuq, 6 ta ruboiy keltirilgan. "Mezon ul-avzon" dan avval Shayxzoda Ahmad Taroziyning "Funun ul-balogs'a", keyin Boburning "Risolai aruz" asari turkiyda yaratilgan.

Alisher Navoiyning "Arba'in", "Siroj ul-muslimin", "Munojot" asarlari diniyislomiy ruhdagi asarlardir.

Sharq adabiyotida "arba'in" an'anasi mavjud bo'lib, xalq orasida mashhur, eng sahih hadislardan 40 tasi saralab olinib, u hadislardan har birining mazmuni bir ruboiyda talqin qilingan. Abdurahmon Jomiyning "Chihil hadis" asarini Navoiy turkiyga tarjima qiladi. Shoirning niyati, asar muqaddimasida ta'kidlangandek, "forsiydonlar idrok aylagan" qirq hadis mohiyatidan turkiyzabonlarni ham bahramand qilish edi:

Forsiydonlar aylabon idrok,

Oriy erdi bu naf'din atrok.

Istadirki, bu xalq ham bori

Bo'limg'aylar bu naf'din oriy.

Hadislarni she'rga solishda barcha shoirlar ularning oson tushunilishini, yodda saqlanishini ham nazarda tutganlar.

“Siroj ul-muslimin” asari she'riy yo'l (masnaviy) da yaratilgan bo'lib, islam dinining arkonlari- namoz, zakot, ro'za, haj haqidagi fikrlar bayon etilgan. Asar muslimmonlar uchun ma'lum ma'noda dastur-qo'llanma vazifasini bajargan.

Navoiy hayotining so'ngida o'z asarlaridagi ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va dunyoviy muddaolar, shaxsiyatidagi davr talablari, mafkurasiga munosabat haqida ko'p fikr yuritadi. Botiniy hayajonlari, armon-o'kinchlari birlashib, Olloh nazdida tavbalar qilish ehtiyojini yaratgan. “Munojot” ana shunday iltijolar majmu'idan iborat. “Munojot” tili- teran tafakkur tili, his-tuyg'ularga to'la ruhiy holat tili. Mohiyatan esa, ma'naviy kamolot, iymon ustuvorligi, ezguliklar sari intilishga da'vat etuvchi asar bo'lib, unda bu yo'lida to'siq bo'luvchi jam'iki illatlarga qarshi turish ham anglatiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Navoiy Alisher. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T.: Fan, 1992. 9-jild.
2. Navoiy Alisher. Layli va Majnun. T.: G'ulom nomidagi NMIU, 2006.
3. Navoiy Alisher. Layli va Majnun (nasriy bayon muallifi V.Rahmonov, N.Norqulov). T.: Adabiyot va san'at, 1990.
4. Komilov N. Tasavvuf. T.: Movarounnahr O'zbekiston NMIU, 2009.
5. Ahmedov T. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni. T.: Fan, 1970.
6. Nazrullaeva S. Tema "Leyli i Medjnun" v istorii literatury narodov Sovetskogo Vostoka. T.: Fan, 1983.
7. Qayumov A. Ishq vodiysi chechaklari. T.: Adabiyot va san'at, 1985.
8. Yusupova D. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi. Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011.